



## PROTESTANTLIK KONFESSIYALARIDA DINIY RUTBALAR IYERARXIYASI

Nig'matullayev Ibrohim Ma'ruf o'g'li

Yangi asr universiteti "Umumta'lim fanlari" kafedrası o'qituvchisi  
Ibrohim2907@umail.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8375077>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil

Ma'qullandi: 23-September 2023 yil

Nashr qilindi: 25-September 2023 yil

### KEYWORDS

protestantlik, konfessiya, diniy  
rutba, konfessiya, cherkov.

### ABSTRACT

*O'zbekistondagi barqarorlikni hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini mamlakatda istiqomat qiladigan 130 dan ortiq millat va elatning o'zaro totuvligisiz, rasman ro'yxatdan o'tgan 16 ta diniy konfessiya vakillari o'rtasida bag'rikenglik munosabatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Polikonfessional O'zbekiston sharoitida yoshlarimiz barcha bilimlar qatori dinshunoslik yo'nalishi bo'yicha protestantlik konfessiyalarida mavjud diniy rutbalar iyerarxiyasi, funksional vazifalarini bilish muhim hisoblanadi.*

*Protestantlik XVI asrda katoliklik yo'nalishidan ajralib chiqqan xristianlikdagi uch asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi. Protestantlik asoschilari M.Lyuter, J.Kalvin, U.Svingli hisoblanadi. Protestantlik cherkov, kalvinchilik, lyuteranlik, anglikan cherkovlari, metodistlar, baptistlar, adventistlarni, shuningdek, ko'pgina mustaqil oqimlarni birlashtiradi. Protestantlik umummuqaddaslik konseptiyasini mahkam ushlaydi va protestantlikda pastorga ruhoniy sifatida alohida mavqega ega, deb qaralmaydi. Cherkovning boshqa a'zolaridan farqli o'laroq, pastor ma'lum bir xizmatlarni amalga oshiradi. Maqolada protestantlik konfessiyalaridagi diniy rutbalar iyerarxiyasi qiyosiy tahlil qilingan. Protestantlik konfessiyalaridagi diniy rutbalarining vazifalari, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar berilgan.*

Protestantlik (lotincha – norozi bo'lish, kelishmaslik) – XVI asrda katoliklik yo'nalishidan ajralib chiqqan xristianlikdagi uch asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlarni o'z ichiga oladi. Protestantlik asoschilari M.Lyuter, J.Kalvin, U.Svingli

hisoblanadi. Protestantlik cherkov, kalvinchilik, lyuteranlik, anglikan cherkovlari, metodistlar, baptistlar, adventistlarni, shuningdek, ko'pgina mustaqil oqimlarni birlashtiradi.

Protestantlik ruhoniylarning inson bilan xudo o'rtasidagi vositachilik rolini inkor etadi. Protestantlikda ruhoniylar bilan oddiy dindorlar farqlanmaydi. Murakkab cherkov iyerarxiyasi yo'q, toat-ibodat soddalashtirilgan, monaxlar bo'lmaydi, ruhoniylarning oila qurishi man etilmaydi.

Protestantlik, asosan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlarida, Niderlandiya, Shveysariya, Avstraliya, Kanada, Boltiqbo'yi mamlakatlari (Estoniya, Latviya)da tarqalgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya") asarida xristianlik bo'yicha dastlabki ma'lumotlar uchraydi. Beruniy xristianlarning bir necha guruhlarga bo'linishi, ularning soni, ro'zasi va mashhur kunlari haqida ma'lumot beradi.

Rus tadqiqotchisi N.G.Karnishinaning "XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada davlat va cherkov munosabatlari" nomli maqolasida davlat va rus pravoslav cherkovi, 1860-1870-yillarda cherkov va jamiyat o'rtasida o'tkazilgan islohotlar davridagi muammolar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotda asosiy e'tiborni oq va qora ruhoniylar nizomiga, cherkov va uning e'tiqodchilari munosabatiga qaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada davlat va cherkov munosabatlar tarixi S.V.Rimskiy, A.Yu.Polunova, S.L.Firsov, S.I.Alekseyeva, M.A.Babkin, A.V.Borisov, N.S.Velitchenko, Yu.B.Smirnova, P.N.Ziryaynov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Rus tadqiqotchisi D.E.Leonovning "XX asr boshlarida Rus pravoslav cherkovida psalomshik rutbasining o'ziga xos huquqiy xususiyatlari" nomli ilmiy maqolasida psalomshik rutbasi haqida ma'lumotlar keltirgan. Xususan, psalomshik rutbasining majburiyatlari, ijtimoiy xususiyatlari, meros huquqlari aks ettirilgan. XX asr boshlarida psalomshikning cherkov hayotida tutgan o'rni haqida xulosalar bergan.

Rus olimasi M.M.Shaxnovichning 2006-yilda Moskva, Sankt-Peterburg, Minsk va boshqa shaharlarda chop etilgan "Религиоведение" (Dinshunoslik) nomli o'quv qo'llanmasi III bobida xristianlik va uning ta'limoti, yo'nalish va oqimlari, cherkov tuzilmasi va undagi diniy rutbalar iyerarxiyasi, ruhoniylarning kundalik va ibodat liboslari haqida ma'lumotlar keltirgan.

### **NATIJALAR**

Reformatsiya harakati dastlab Germaniyada Martin Lyuterning Rim papasiga qarshi chiqishidan boshlangan. 1517-yil 31-oktyabrda Martin Lyuter o'z qarashlarini 95 ta tezisdan bayon etib, uni Vittenberg shahar cherkovlaridan birining darvozasiga osib qo'ygan. Tezislarda cherkovning avliyolar yordamida xalos bo'lish, a'rof, ruhoniylarning vositachilik vazifasi haqidagi ta'limotlari tanqid qilingan. Keyinchalik Rim papasining hokimiyati inkor qilingan.

Lyuter cherkov tashkilotining iyerarxiya prinsipi asosida tuzilishini va boshqarilishini rad etgan, Isoning xaloskorlik kuchiga ishonchi orqali kishi mustaqil ravishda, cherkovning vositachilgisiz xalos bo'lishi mumkinligi g'oyasini himoya qilgan. Martin Lyuter rohiblikni bekor qilish, diniy marosimlarni soddalashtirish va cherkovni dunyoviy hokimiyatga

bo'ysundirish kabilarni talab qilib chiqqan. Uning talablari Germaniyada endigina shakllana boshlagan burjuaziyaning manfaatlariga mos kelgan. Shuningdek, ko'pchilik nemis knazlari va feodal guruhlarining vakillari ham unga xayrixohlik bildirgan. Mazkur guruhlar cherkovning katta yer maydonlariga egalik qilishi, behisob boylıklarga egaligi, german cherkovlarining Rim papasiga katta pul mablag'lari ajratishi va davlatlarning ichki ishlariga doimiy aralashuvi kabilardan norozi bo'lganlar.

Bir guruh lyuterchi nemis knyazlarining talabi bilan Shpeyer Reyxstag har bir nemis knazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan. Lekin Germaniyada Rim papasiga qarshi kurash olib borishga qodir kuchli, markazlashgan davlat yo'q edi. Rim papasining tazyig'i bilan 1529-yilda Reyxstag bu qarorni bekor qilgan. Reyxstagning qaroriga javoban, 5 nafar nemis knazi va 14 nafar imperiyaning shaharlari Reyxstagdagi ko'pchilikka qarshi norozilik (protest) bildirganlar. Mazkur voqeadan keyin xristianlikda reformatsiya natijasida paydo bo'lgan yangi yo'nalish "protestantizm" deb atala boshlangan.

Germaniyadagi reformatsiya harakatida aholining o'rtahol va kambag'al tabaqalari ham keng ko'lamda ishtirok etgan. Ularning manfaatlarini Tomas Myunser o'z qarashlarida himoya qilgan.

Tomas Myunser diniy ta'limotga munosabat sohasida cherkov tashkilotlarining quyidan yuqoriga bo'ysunishiga asoslangan boshqaruv tartibiga qarshi chiqqan, ortodoksal diniy ta'limotlar va yepiskoplar hokimiyatini inkor qilgan, xudoga e'tiqod har bir kishining qalbida tug'ilishi kerak, deb hisoblagan. Shu bilan birga, kishi Isoning ruhini qalbida his qilsa, soxta haqiqat og'usini tark etadi, oliy ilohiy haqiqatga erishadi, bunga erishishdagi tenglik fuqarolarning huquqiy tengligini bildiradi, deb ta'kidlagan. Tomas Myunser kishilarni umumiy tenglikka asoslangan ilohiy jamiyat qurishga da'vat etgan.

O'rta asrlarda diniy marosimlarda qo'llanib kelingan ikonalar, sham yoqish, xoch va boshqa vositalardan foydalanishdan voz kechilgan. Dindorlar jamoasini saylab qo'yiladigan presviterlar va pastorlar boshqargan. Ular ayni paytda diniy marosimlarga rahbarlik ham qilganlar. Diniy tashkilotlarga esa avtonomiya huquqi berilgan.

Protestantlik dunyoviy kishilarni ruhoniylardan ajratmaydi, bu ta'limotga ko'ra, barcha dindorlar ruhoniydir. Sirli marosimlardan faqat cho'qintirish va non bilan tamaddi qilishni tan oladi. Dindorlar Rim Papasiga bo'ysunmaydilar. Ibodat va'z o'qish, birgalashib ibodat qilish va diniy qo'shiqlar (psalomlar) aytishdan iborat.

Protestantlar Bibi Maryamning ilohiy ekanini tan olmaydilar, tarkidunyochilik, go'daklarni cho'qintirish, ruhoniylar kiyadigan kiyimlar, ikonalarini rad etadilar.

Yan Gus kuydirilgandan yuz yil keyin Germaniyada Vittenberg universiteti professori Martin Lyuter (1483–1546) Protestantlar Cherkov asoslarini yaratadi. U ham indulgensiya sotilishini tanqid qiladi. M.Lyuter diniy-axloqiy jihatdan mehnatni qadrlash lozimligi g'oyasini ilgari surdi. Lyuterning fikricha, inson va Xudo o'rtasida bevosita aloqa bo'lishi mumkin.

Lyuter ta'limoti protestantlikdagi yo'nalishlardan biri — lyuteranlikka asos soldi. Bu ta'limotga ko'ra, odamlar vijdon va tavba-tazarruni ongli ravishda va muntazam nazorat qilishlari lozim. M.Lyuter tavba-tazarru uzoq davom etadigan jarayon ekanligini qayd etadi. Lyuteranlar ta'limotiga ko'ra, Papa o'zi buyurgan yoki cherkov nizomida belgilangan jazolardan ozod qilishi mumkin, ammo cherkov insonni xudoning jazosidan ozod qilolmaydi, deb hisoblanadi. Indulgensiyalarni sotib olishning befoydaligini M.Lyuter shunday

asoslaydi: “Xudo chin ko’ngildan tavba qiluvchilarning gunohidan kechadi, abadiy qiynoqlardan ozod qiladi, osiy bandalar Papaning yorlig’isiz ham bundan umid qilishlari mumkin”. Lyuteranlik Germaniya, Daniya, Norvegiya, AQSHda tarqalgan. Xristianlikda bu yo’nalishlardan tashqari kalvinizm, presviterianlar, anglikan cherkovi, baptizm, anabaptizm, mennonitlar, unitarizm, metodistlar, kvakerlar, pyatidesyatniklar, adventistlik yo’nalishlari mavjud.

Adventistlar jamoasida pastor cherkovning eng taniqli mas’ul xodimi va ruhoniysi hisoblanadi. Adventizm tarafdorlari pastorlarni ilohiy xizmatga chaqirilgan va cherkov xizmatiga tayinlangan shaxs deb ishonishadi. Ruhoniylik lavozimi mahalliy konferensiya tomonidan tayinlanadi va mahalliy cherkovga pastor sifatida ishlashga o’tkaziladi. Uylanmaslik yo’lini tutish (selebat) pastorlarga shart emas, adventist ruhoniylari oila qurishi mumkin.

Lyuteranlik cherkovida pastor cherkov rahbari hisoblanadi. Pastorlar ommaviy ibodatlarda ma’ruzalar o’qish va cherkovning ichki faoliyatini boshqarish bilan shug’ullanadi. Shuningdek, pastor ommaga tushuntirish ishlari olib borish va sirli marosimlarni o’tkazish bilan ham shug’ullanadi.

Lyuteranlik — protestantlikning yirik yo’nalishlaridan biri bo’lib, asoschisi M.Lyuter hisoblanadi. Lyuteranlik Germaniyada paydo bo’lgan. Lyuteranlik protestantlikning asosiy qoidalarini bayon qilib bergan. Lyuteranlik tarafdorlari katolik ruhoniylari va cherkovning xudo bilan dindorlar o’rtasidagi vositachilik rolini tan olmaydi. Xristianlik marosimlaridan faqat ikkitasi — cho’qintirish va prichasheniyani e’tirof qiladi. Lyuteranlikda diniy aqida, ichki diniy e’tiqod birinchi darajali ahamiyatga ega, diniy ta’limot Injilga asoslanishi lozim. “Augsburg diniy e’tiqodi” va “Apologiya”ni o’z ichiga olgan “Totuvlik kitobi”, Bibliya hamda “Katta” va “Kichik” katexizislar lyuteranlikning asosiy diniy hujjatlari sanaladi. Lyuteranlik Skandinaviya mamlakatlarida, Germaniya, AQSH, Boltiqbo’yi mamlakatlarida tarqalgan. 1947-yilda Jahon lyuteranlik ittifoqi tuzilgan. Lyuteranlik cherkovi iyerarxiyasi quyidagicha: arxiyepiskop, mahalliy yepiskop, yepiskop, kirxenprezident (cherkov prezidenti), bosh superintendent, superintendent, propst (katta pop; bir necha cherkovga qarovchi bosh pop), vikariy (o’rinbosar, pastor yordamchisi).

Bosh sinod – lyuteranlikning oliy huquqiy organi yepiskop tomonidan nazorat qilinadigan Konsistoriya (cherkov ishlari bo’yicha tashkilot) asosiy ijroiya hokimiyati hisoblanadi.

Cherkov boshlig’i bo’lgan Arxiyepiskopga “Ваше Высокопреосвященство”, deb qolganlarga esa janob yepiskop yoki boshqacha tarzda murojaat qilinadi.

Lyuteranlik cherkovida ayol kishi ham pastorlik lavozimiga tayinlanishi mumkin. Toshkentdagi Nemil yevangel lyuteranlar cherkovi jamoasi rahbari ayol pastor Lyudmila Shmidt hisoblanadi.

Anglikanlik – protestantlikdagi oqimlaridan biri hisoblanadi. Angliyaning davlat dini XVI asrda Reformatsiya harakati natijasida paydo bo’lgan.

Anglikan cherkovi – Angliyaning davlat cherkovi 1534-yilda mahalliy katolik cherkovi Rim qiroli Genrix VIII ni cherkov boshlig’i deb e’lon qildi, ya’ni cherkov qiroli hokimiyatiga bo’ysundirildi. XVI asr o’rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlar bekor qilindi, but va sanamlar olib tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo’lmay qoldi.

“Mo’tadil yo’l” ta’limoti, ya’ni Rim katolitsizmi va protestanizm orasidagi o’rtacha yo’l shakllandi.

Anglikan diniy ta’limoti “Umumiy ibodatlar kitobi”da aks ettirilgan. Unda cherkovning najotkorlik kuchi haqidagi katolik aqidalari hamda shaxsiy e’tiqod orqali najotga erishish haqidagi protestant ta’limotlarini o’zida mujassam qilgan.

Buyuk Britaniya anglikan cherkovi davlat cherkovi hisoblanib, rasmiy maqomga ega. Mazkur cherkov rim-katolik cherkovi iyerarxiyasini saqlab qolgan: arxiyepiskoplar, yepiskop, vikariy yepiskopi, dekan, arxidiakon, kanonik (katolik sobori ruhoniysi), prebendariy, katta pop (благочинный декан), pastor, vikarlar, kurat va diakonlardan iborat.

Anglikan cherkovi butun dunyo bo’ylab xristianlarning yirik diniy tashkilotidir. Anglikan cherkovida faoliyat ko’rsatadigan asosiy iyerarxiya yepiskop, ruhoniyy va diakon hisoblanadi. Ushbu lavozimlarning huquq va majburiyatlari quyida keltirilgan. Bu esa iyerarxik tashkiliy tuzilmani yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Anglikan cherkovi iyerarxiyasi quyidagicha:

**Arxiyepiskop.** Arxiyepiskoplar xuddi gertsoglardek huquqqa ega bo’lib, ularga “Еро милость”, deb murojaat qilinadi. Yepiskoplarga esa xuddi lordlardek hurmat ko’rsatiladi. Ular ham Lordlar palatasida o’z o’rniga ega. Cherkov iyerarxiyasidagi boshqa lavozimdagi shaxslarga “Преподобие”, deb ism-familiyasi aytiladi. Agar ular ilohiyotshunoslik bo’yicha doktor bo’lsa, ularning nomiga “Doktor”, (undan so’ng esa ism-familiyasi) so’zi qo’shib aytiladi.

**Yepiskop.** Yepiskop cherkovning a’zosi bo’lib, unga butun boshli yeparxiya deb nomlanuvchi jamoaning ishini nazorat qilish majburiyati yuklatilgan. Faqatgina yepiskop insonlarni ruhoniyy va diakon lavozimlariga tayinlash huquqiga ega hisoblanadi. Yepiskoplar muntazam yig’ilishlarni o’tkazish orqali Anglikan cherkovining muhim qarorlarini qabul qiladilar.

Anglikan cherkovida ayol kishining yepiskoplik lavozimiga tayinlanganlik holatini ham uchratish mumkin. 2015-yilda yepiskoplik lavozimiga Libbi Leyn tayinlangan.

**Ruhoniyy.** Ruhoniyy anglikan cherkovining a’zosi hisoblanadi. Unga xristianlikning yetti sirli marosimlaridan biri bo’lgan Yevxaristiya (Prichastiya) marosimini o’tkazishda yig’ilganlarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Ruhoniyyga xristianlar tomonidan Xudoning afv etishi kafolatchisi sifatida qaraladi. Ruhoniyy bo’lish uchun biror shaxs ilgari diakon lavozimiga tayinlangan bo’lishi va u ruhoniyy lavozimiga ko’tarilganidan keyin ham o’z xizmat vazifasini bajarishi kerak. U bir vaqtning o’zida ham ruhoniyy, ham diakon hisoblanadi. Shuningdek, ruhoniylar ba’zi hududlarda presviter sifatida ham tanilgan.

**Diakon.** Diakon xizmatchi hisoblanib, unga Injil Xushxabarini tarqatish, xristianlikning yetti sirli marosimlaridan biri bo’lgan Yevxaristiya marosimini o’tkazishda yordam berish vazifasi yuklatilgan. Diakonlar cherkov faoliyatining muhim qismi bo’lgan xizmatlarni ado etishlari kerak. Ular xristianlikka e’tiqod qiluvchilarga o’rnak ko’rsatish, Injilda ko’rsatilgan vazifalarni e’lon qilish va jamoatchilikni ruhlantirish huquqiga ham egadirlar.

**Dekan (dean).** Katoliklarda va anglikanlarda – kafedral soborning yoki kapitulyar cherkovning katta ruhoniysi; monaxlikning dastlabki vaqtlarida u o’nlikka bo’lingan va 10 monaxning rahbari dekan deb nomlangan.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari boshqa lavozimlar ham mavjud bo’lib, ular kasalxonalar va qamoqxonalarda yordam beradigan ruhoniylarni o’z ichiga oladi. Bu turdagi

ruhoniylar kapellanlar deb ataladi. Kapellanlar kapel deb nomlanuvchi kichik mehrobsiz cherkovlarda faoliyat olib boradilar.

Yepiskop yo'qligida uning boshqaruv vazifasini bajarish uchun vaqtincha tayinlanadigan komissar lavozimi ham mavjud.

Kanon degan martaba ham mavjud bo'lib, bu ruhoniylarga ham, cherkovga ham yillar davomida sadoqat bilan xizmat qilgan, munosib o'rnak ko'rsatgan shaxslargagina beriladi.

Prebendariy ruhoni bo'lib, cherkov hududini boshqaradi. U diniy idoralar daromadidan foydalanuvchi, kanonik, umrbod nafaqa oluvchi, kambag'allarni cherkovga chorlovchi hisoblanadi.

Pyatidesyatniklar - protestanlikdagi eng yirik oqim bo'lib, XX asr boshlarida AQShda yuzaga kelgan. Diniy hayotda "Muqaddas Ruh in'omlari" degan tushunchaga tayanishadi. Ta'limotga ko'ra, bu in'omlar faqatgina Muqaddas Ruh bilan cho'qintirish orqali Xudo o'g'lining (ya'ni Iso Masihning) asl izdoshlariga, unga xizmat qilish vositasi sifatida beriladi. Muqaddas Ruh bilan cho'qintirilganlikning tashqi belgisi sifatida pyatidesyatniklar glossaliya, ya'ni "xudo bilan notanish tilda gaplashish"ni tushunishadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Pyatidesyatniklik tarixi rasman 1901-yilning 1-yanvariga borib taqaladi. Aynan shu kuni Kanzas shtatining Topeke shahridagi Bibliya maktablarining birida Ch.Parxem ismli ruhoni boshqarayotgan talabalardan biri Agnessa Ozman "uchinchi rahmat"ga erishib (ya'ni Muqaddas Ruh bilan cho'qintirilib), xitoy tilida gapira boshlaydi. Uning ketidan "xudo bilan notanish tilda gaplashish" "epidemiya"si butun maktabni qamrab oladi. Shundan so'ng, Ch.Parxem o'z o'quvchilari bilan janubiy shtatlarda pyatidesyatniklikni targ'ib qila boshlagan.

Pyatidesyatniklar (To'liq injil xristianlari) cherkovi iyerarxiyasi ham o'ziga xos.

Umumiy kengash. Umumiy kengash vazirlar, xizmatchilar va mahalliy cherkovning barcha litsenziyalangan vakillaridan iborat. Umumiy kengash shikoyat va murojaat qilishda yakuniy organ hisoblanadi.

Bosh ijroiya qo'mitasi. Qo'mita a'zolari tarkibiga kotiblar, xazinachilar va nazoratchilar kiradi va konferensiyada ikki yilga saylanadi.

Tuman konferensiyalari. Tuman chegaralaridagi hududlardan bo'lgan Bosh konferensiya a'zolari okrug (tuman) konferensiyasi a'zolarini tashkil qiladilar.

Tuman kengashi. Tuman nazoratchisi ushbu kengash raisi hisoblanadi.

Cherkov jamoatlari (kongregatsiya). Mahalliy cherkovning boshqaruv organi mahalliy cherkov a'zolaridan iborat.

Cherkov kengashlari. Pastor raislik qiluvchi kengash vasiylarni, diakonlarni o'z ichiga oladi. Mahalliy cherkov pastorni aniq yoki nomuayyan muddatga saylaydi.

Cherkov vakili. Tuman yoki umumiy konferensiyaga cherkov vakili tayinlanadi. Ushbu vakillar o'z lavozimlari doirasidan tashqarida hech qanday vakolatga ega emaslar. Ularning ovoz berish erkinligi cheklangan.

Cherkov a'zosi. Cherkov a'ziligiga da'vogarlarining diniy e'tiqodi va sadoqati tekshiruvdan o'tkaziladi. Cherkov a'zolari mahalliy cherkov uchun tinimsiz ishlashlari lozim sanaladi.

Cherkov bilan aloqalar. Cherkovlar o'z ishlarini nazorat qilish huquqiga egadirlar, ammo Xalqaro pyatidesyatniklar cherkovi (International Pentecostal Church of Christ) konstitutsiyaviy parametrlari doirasidan chiqmagan holda bo'lishi lozim. Ular mahalliy va milliy nazoratning yaxshi birlashmasi hisoblanadi.

Novoapostol cherkovi XIX asrning o'rtalarida Angliyada vujudga kelgan protestantlik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Cherkov diniy ta'limotida 7 sirli marosimning uchtasi e'tirof etiladi: suv bilan cho'qintirish (yoshning farqi yo'q), prichasheniye – non va vino totinish, Muqaddas Ruh bilan (zapechatlenie) insonning ichki olamini butunlay yangilash.

Novoapostol cherkovi katolik Apostol cherkovidan kelib chiqqan oqim hisoblanadi. Ushbu cherkov Germaniyada 1863-yildan beri mavjud bo'lib, Gollandiyada ham Novoapostol cherkovlari mavjud. Bu Gamburgda vujudga kelgan Chiliastik cherkovi hisoblanadi.

Novoapostol cherkovi o'zini ilk cherkovning qayta tiklanishi deb hisoblaydi. Bu rahbarlar o'zlarini 12 havoriyning vorislari deb hisoblashadi.

Cherkovni birinchi apostol va boshqalar boshqaradilar. Ular o'z navbatida xristianlikdagi 12 apostolning o'rinbosarlari hisoblanadilar ("Novoapostol cherkovi" nomi shundan kelib chiqqan). Birinchi apostol, diniy qoidalarga asosan, Xudoning yerdagi vakili hisoblanadi. Mazkur cherkov xodimlari o'z vazifalarini bepul tarzda, o'zlarining asosiy kasblaridan tashqari bajaradilar.

Har bir jamoa 150-170 kishilik katta oila kabi tashkil etiladi. Pastorlar kamida ikki oyda bir marotaba har bir uyni ziyorat qiladilar. Asosiy e'tibor bolalar va o'smirlar tarbiyasiga, nogiron va kambag'allarga yordam qilishga qaratiladi.

Novoapostol cherkovi iyerarxiyasi quyidagicha:

Bosh apostol. Novoapostol cherkovida eng yuqori mavqeda bo'lib, cherkov boshlig'i hisoblanadi. Unda yangi apostollarni tayinlash vakolati mavjud bo'lib, ba'zi holatlarda boshqa havoriylar ham bu vazifani bajarishlari mumkin.

Tuman (okrug) apostollari. Tuman havoriylari to'g'ridan to'g'ri va ochiqdan ochiq bosh havoriy qo'l ostida ishlaydilar. Tuman havoriylarining har biri hududiy cherkovlarni boshqarish uchun javobgar hisoblanadi. Ushbu havoriylarga boshqa havoriylar o'z burch-vazifalarini bajarishda yordam berishadi.

Apostollar. havoriylar xizmati Novoapostol cherkovida muhim o'rin tutadi va hozirgi kunda dunyoda 360 va undan ortiq havoriylar ishlaydi.

Ruhoniylar. Ruhoniylar Novoapostol cherkovida ikkinchi darajali lavozimni egallaydilar. Ular Xristianlikning yetti sirli marosimlaridan biri bo'lmish Prichastiya va cho'qintirish marosimlarini amalga oshiradilar.

Yepiskoplar. Yepiskoplar apostollarni kundalik ishlarida qo'llab-quvvatlaydilar. Shuningdek, ular bir nechta tuman cherkovlarida ham ishlashlari mumkin hisoblanadi.

Tuman elderlari (Tuman oqsoqollari). Mazkur ruhoniylar viloyat hududiy cherkov okrugining rahbarlari hisoblanadi.

Shepherdlar (Cho'ponlar). Shepherdlar ruhoniylar yoki vazirlar hisoblanib, mahalliy hududlarda ishlaydi. Odatda yirik majlislariga rahbarlik qiladi.

Tuman yevangelistlari (Tuman xushxabarchilari). Tuman yevangelistlari bu ruhoniylar Tuman elderlarini (Tuman oqsoqollarini) qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berish uchun javobgar shaxslar hisoblanadi.

Ruhoniylar (Pop, kashish). Ular cherkov a'zolarga ma'naviy g'amxo'rlik ko'rsatadi va bitta tumanda bir nechta ruhoniylar ishlashi mumkin hisoblanadi.

Yevangelistlar (Xushxabarchilar), Yevangelistlar bu ruhoniylar mahalliy hududlarda ishlaydi va guruhlariga rahbarlik qiladi. Bu ruhoniylar guvohlik berish va yangi tashkil etilgan jamoatchilik cherkovlarida ishlash uchun mas'ul shaxslar hisoblanadi.

Diakonlar (xizmatchilar). Diakonlar ministrati mahalliy ministrat hisoblanadi. Diakonlar ruhoniylarni qo'llab-quvvatlaydi. Agar ruhoniylar yo'q bo'lsa, diakonlar ilohiy xizmatni bajarishadi.

### MUHOKAMA

Umuman olganda, xristianlikdagi turli oqimlarda diniy rutbalar iyerarxiyasiga munosabat o'ziga xos hisoblanadi. Pavoslavlikda diniy rutbalar oq va qora ruhoniylar guruhlariga bo'linsa, katolik yo'nalishida uzoq tarixiy jarayonlar natijasida ko'plab diniy rutbalar va cherkov xizmatchilari vujudga kelgan. Protestantlik iyeraxiyani rad etadi, lekin turli konfessiyalarida o'ziga xos tarzda iyerarxiya rivojlangan.

### XULOSA

Bugungi kunda xristianlik jahon dinlaridan biri hisoblanadi. U e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra boshqa jahon dinlari (buddaviylik va islom) orasida eng yirigi hisoblanadi. Xususan, xristianlik dini ham o'zining ibodatxonasiga va unda xizmat qiluvchi diniy rutba xodimlariga ega. O'nlab diniy konfessiyalar faoliyat yuritadigan O'zbekiston sharoitida milliy totuvlik va bag'rikenglik, o'zaro do'stona muhitni yanada yuksaltirishda xristianlik konfessiyalariga oid diniy rutbalarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Protestantlik – XVI asrda katoliklik yo'nalishidan ajralib chiqqan xristianlikdagi uch asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Protestantlikda ruhoniylar bilan oddiy dindorlar farqlanmaydi. Murakkab cherkov iyerarxiyasi yo'q, toat-ibodat soddalashtirilgan, monaxlar bo'lmaydi, ruhoniylarning oila qurishi man etilmaydi.

Protestantlik umummuqaddaslik konsepsiyasini mahkam ushlaydi va protestantlikda pastorga ruhoniylar sifatida alohida mavqega ega, deb qaralmaydi. Cherkovning boshqa a'zolaridan farqli o'laroq, pastor ma'lum bir xizmatlarni amalga oshiradi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. I tom. / A.Rasulov tarjimasini. - T.: FAN, 1968. – B. 331.
2. Dinshunoslik qomusiy lug'ati. Mas'ul muharrir: Z.Islomov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2017. – B. 323.
3. Dinshunoslik atamaları izohli lug'ati (glossariy). Mualliflar jamoasi. Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. –T.: "Movarounnahr", 2016. – B.166.
4. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari / mas'ul muharrirlar K. Kamilov, A. Mansurov. - T.: Toshkent islom universiteti, 2014. - B. 76.
5. Карнишина Н.Г. Вестник. Томского государственного университета. История. 2014. № 5 (31) / - С. 34-37.
6. Леонов Д.Е. Вестник ТвГУ. Серия "История". 2015. № 1. С. 157-167.
7. Nig'matullayev I. KIBERMAKONDA XRISTIANLIKKA OID DINIY JARAYONLARNI O'RGANISHNING ILMIY ASOSLARI //World of Science. – 2023. – T. 6. – №. 4. – С. 236-245.
8. Nig'matullayev I. KIBERMAKONDA PRESVITERIANLIK AMALIYOTLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – Т. 1. – №. 13. – С. 12-16.
9. O'G'Li, Ibrohim Ma'Ruf. "Presviterianlikda "onlayn ibodat" ning o'ziga xos xususiyatlari." Scientific progress 2.7 (2021): 1332-1335.
10. Религиоведение / Под ред. М.М.Шахнович — СПб.: Питер, 2012. С. 183-209.

11. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/protestantizm-uz/>
12. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-ichki-ishlar-vazirligi-a-k-a-d-e-m-i-y.html?page=11>
13. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/pastor-uz/>
14. <https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Пастор&oldid=101456101>
15. <https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Пастор&oldid=101456101>
16. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/pastor-uz/>
17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-l/lyuterchilik-uz/>
18. <http://www.orthedu.ru/books/protokol/tituly.htm>
19. <https://www.hierarchystructure.com/anglican-church-hierarchy-2/>
20. <http://www.orthedu.ru/books/protokol/tituly.htm>
21. <https://www.hierarchystructure.com/anglican-church-hierarchy-2/>
22. [https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic\\_fwords/28958/%D0%9F%D0%A0%D0%95%D0%91%D0%95%D0%9D%D0%94%D0%90%D0%A0%D0%98%D0%99](https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords/28958/%D0%9F%D0%A0%D0%95%D0%91%D0%95%D0%9D%D0%94%D0%90%D0%A0%D0%98%D0%99)
23. <https://www.hierarchystructure.com/pentecostal-church-hierarchy/>
24. <https://www.hierarchystructure.com/presbyterian-church-hierarchy/>
25. <https://www.hierarchystructure.com/new-apostolic-church-hierarchy/>
26. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/adventistlar-uz/>
27. <https://ansya.ru/health/namangan-davlat-universiteti-falsafa-kafedrasi/pg-10.html>
28. <https://www.hierarchystructure.com/adventist-church-hierarchy-2/>

INNOVATIVE  
ACADEMY